

**AUTIZM KASALLIGINING PSIXOLOGIK BELGILARI.****Karimjonova Gulsanam**

Annostatsiya. Ushbu maqolada reallikdan uzoqlashgan, tashqi dunyodan uzilgan, tashqi olam bilan kommunikativ funksiyalarni buzulishi kabilarni o'z ichiga oluvchi sindrom – Autizm haqida so'z boradi. Mamlakatimizda bunday bolalar sonining ortib borishi tibbiyot xodimlari, psixiatrlar, psixologlar, pedagoglar va ota-onalarning bu muammoga chuqur yondashuvlarini va uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, ulami korreksiyalashning eng optimal variantlarini ishlab chiqarishga bo'lgan urinishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'z. autizm, autos ,psixokorreksiya, Leo Kenner, Eygen Bleyler , diagnostik karta, rivojlanish dinamikasi, individual imkoniyat,o'yin terapiya.

Autizm - grekcha “autos”, ya'ni “o ‘zi” degan m a'noni anglatadi. Autizm bu atama ‘0 yil oldin kirib kelgan, munozarali, lekin ba'zilarning baxslashib kelishicha, shaxsga (odatda bolaga) “autistiklik” deb tashxis qo'yish mumkin. Bu xastalikning asosiy belgisibolaning muloqot qilishdagi qiyinchiligi, boshqa odamlar bilan aloqa qilishdan o'zini tortib, go'yo o'zining olamida yashayotgandek tuyuladi. Ba'zi autistik cheklanishlari boigan odamlar bitta m a'lum sohaga (masalan rassomchilik) qaratilgan ajoyib qobiliyatlarini namoyon etadilar va boshqalari esa me'yoriy “normal” holatga tushib qoladilar. Shunga qaramay, butun olamda bu xastalikka xanuzgacha davo topilgani yo'q. Autizm nerv sistemasining kasalliklaridan biridir. Ushbu nuqson bolalarda turlicha namoyon bo'ladi. Ayrim olimlar fikricha autizm ruhiy kasalliklarning belgilaridan biri bo'lib, bunda bola tevarak-atrofga nisbatan befarq; beparvo bo'ladi. Natijada atrofdagilar bilan aloqada bolmaydi, muloqot qilmaydi. Bola o'z-o'zi bilan bo'lib, o'zicha hayajonlanib, kuyinib, nimalardandir tashvishlanib o'z ichki dunyosida yashaydi. Ba'zi bolalarda emotsional qiyinchiliklar mavjud boiadi. Ular tushkunlikka tushushlari yoki bezovta bolishlari mumkin yoki ularning hulq-atvori g'ayritabiiy bo'ladi, buni noo'rin yig'lashlar yoki kulishlaridan bilish mumkin. Ular haddan tashqari harakalchan bo'lib, ish vaqtining o'zida biror narsaga e'tiborini bir zungina qaratib, yana boshqa narsa bilan chalg'ib ketishlari mumkin, yoki ular befarq, yoki parishonxotir bolishlari mumkin. Emotsional tushkunliklar yaqin orada bo'lib o'tgan jarohatlar, xafagarchilik yoki uzoq vaqt ongli ish bilan shug'ullanish natijasida yuzaga



kelishi mumkin. Autizm atamasi birinchi bor shveysar psixiatri Eygen Bleyler tomonidan 1910-yilda shizofreniya kasalligining belgilaridan biri sifatida ishlatildi. Autizm holati shizofreniya kabi ruhiy kasallikda ko‘proq namoyon boiadi. Bola vaqtni sezmaydi, hozirda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni o‘tgan yoki kelasi zamon bilan almashtiradi, real voqea-hodisalarni fantastik mavhum voqeahodisalar bilan aralashtirib yuboradi. Autizm holatida bola faoliyati sustlashadi yoki keraksiz, noaniq faoliyat bilan shug‘ullanadi. Bolaning hulq-atvori buziladi, O‘yin faoliyati, qiziqishi sustlashadi, ma’yus holatda yuradi, kattalar va tengdoshlari bilan aloqada bo‘lm aydilar, hech kim bilan gaplashishni istamaydi, ba’zilatda indamaslik (mutizm holati) kuzatiladi. 1943- yilda inglizpsixiatri Leo Kenner davolash amaliyotida 11 bolaning xulq alvori, yurish-turishida o‘xshash belgilarni kuzatib, “ilk yoshdagi bolalar autizm atamasini kiritdi. U kuzatgan barcha bolalardagi belgilar hozirgi kunda ham autizmning asosiy belgilari sifatida o‘rganilmoqda. Shunga qaramay, ko‘p-yillar mobaynida bolalar autizmi aqli zaiflik, shizofreniya kabi va boshqa ruhiy kasalliklarning belgilari sifatida o‘rganilgan edi. Faqatgina 1981-yildan boshlab bolalar autizmi mustaqil nuqson sifatida qabul etildi. Hozirgi kunda bolalar autizmi bosh miyaning rivojlanishidagi kamchiliklardan kelib chiqadigan mustaqil nuqson sifatida o‘rganilmoqda. Biroq bosh miyaning rivojlanishidagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari hali ham noaniq. Ayrim olimlarning fikriga ko‘ra bolalar autizmi irsiy kasallik bo‘lib hisoblansa, boshqalari esa autizm holati aqli zaiflikdan kelib chiqqanligini ta’kidlaydilar. Amerikada 1996-2007-yillarda bolalar autizmi mustaqil nuqson sifatida ancha ko‘p miqdorda hisobga olindi. Bolalarga-“sababi noaniq boigan rivojlanishning og‘ir buzilishi” diagnozi qo‘yilgan. Diagnostika o‘rnatilishda ko‘proq bolaning hulq-atvoriga e’tibor beriladi. Autizmning birinchi belgilari bir yoshda paydo boiadi.

Bola hayotining dastlabki-yillarida jamiyat bilan o‘zaro aloqadorligini, harakatini buzadigan salbiy omillar uning miyasini yetilish jarayonini kechiktiradi, tormozlaydi, analizatorlararo murakkab tizimning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Bunday bolalarga o‘z vaqtida psixologik-pedagogik, korreksiyalash yordamini ko‘rsatish uchun uning psixik va ijtimoiy rivojlanishdagi nuqsonlarni mumkin qadar erta aniqlash, keyinchalik bartaraf etilishi mushkul bo‘lgan nuqsonlarni ilk yoshda bartaraf etish, shu bilan bolalar nogironligini oldini olish ularning ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.



Bolalar autizmi turli shakllarda, aqliy va nutqiy rivojlanishning turli darajalarida namoyon bo'ladi, shu sababli autik bolalarni maxsus va umumta'lim maktabgacha ta'lim muassasalarida, yordamchi maktablarda uchratish mumkin. Hamma joylarda bunday bolalar boshqa odamlar bilan o'zaro aloqa qilishda, muloqotda, ijtimoiy moslashishda juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Autik bola chetdan qaraganda erkalatilgan, tantiq, tarbiyasiz, injiq bola haqida tasavvur hosil qilishi mumkin, atrofdagilaming ko'chada, transportda, do'konda uni tushunmasliklari, tanqidlari bolaning hamda ota-onasining holatini murakkablashtiradi. Natijada, autik bolalarda "butun dunyoga qarshi chiqishga" intilish istagi uyg'onadi, olrtoqlik bog'lanishlari uziladi, jamoat joylarida bo'lishdan qo'rqish hissi tug'iladi, ya'ni oilaning ikkilamchi autizatsiyasi shakllanadi. O'z vaqtida tashxis qilinmaslik va tegishli yordanming, atrofdagilaming xayrixohligi va to'g'ri qo'llab-quvvatlashining mavjud emasligi tufayli autik bolalarning ko'p qismi "ta'limga qobiliyatli emas" deb topiladi va ijtimoiy jihatdan moslashmaydi. Shu bilan birgalikda, o'z vaqtida boshlangan korreksiyalash ishlari natijasida bolalardagi autizm ko'rinishlarini bartaraf etishga va astasekin bolani jamiyatga kiritishga imkon yaratiladi. Turli sur'atda, turli natijalar bilan, ammo har bir autik bola qadamma-qadam odamlar bilan murakkab o'zaro harakatga, aloqadorlikka kirisha boradi va bu yoidagi har bir jiddiy qadam unga, uning atrofidagilari, yaqinlariga olam-olam quvonch bag'ishlaydi. Ko'pincha muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvga bolaning biror-bir sohadagi o'ziga xos qobiliyatliligi, masalan, "tug'ma" savodliligi, musiqa, rasm chizishga, texnik ko'rish-yasashga iqtidori turtki boladi. Autizm - keng ma'noda, odatda, aloqaga kirishmaslik, "yovvoyilik", aloqadan o'zini olib qochish, o'zining dunyosida yashash ma'nosini anglatadi. Aloqaga kirishishdan qochish turli shaklda va sabablarga ko'ra namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zan bu bolaning xarakteri kuchsiz bolsa, boshqa hollarda uning ko'rish yoki eshitish qobiliyatining yetarlicha bolm asligi, aqliy rivojlanishdan orqada qoiish, nutq rivojlanishining orqada qolishi (eng avvalo, uning kommunikativ, ya'ni aloqa qilish funksiyasining), nevrotik buzilishlar yoki o'g'ir gospitalizm (bolaning ilk yoshlarida ijtimoiy jihatdan izolyatsiya qilinishi natijasida yuzaga kelgan aloqa qilishning surunkali taqchilligi) oqibatida kelib chiqadi.

Autizmning asosiy belgilari bir yoshdan to uch yoshgacha davrda to'liq namoyon boladi. Ota-onalar quyidagi belgilarga e'tiborli bo'lishlari kerak:



- Bolaning ota-onasi bilan bo'lishini yoqtirmaslik (qo'liga olishi, quchoqlashishi, o'pishi, silashi va h.k.)
- uch yashar bola nutqi ning rivojlanmaganligi;
- biron bir kishi bilan bo'lishdan ko'ra bir o'zi bo'lishini yoqtirishi; ular buyumlarni doim bir xil tartibda qo'yib chiqadilar ;
- tevarak-atrof bilan aloqada boiishni istamasligi; qiziqmaslik. Odatda bola nutqi hali rivojlanmagan bo'lsa ham, u o 'z istakxohishlarini imo-ishora, harakat bilan bildiradi. Bola autizmida esa bu kuzatilmaydi;
- bola ko'zingizga qaramaydi;
- bolaning harakatlari, imo-ishoralari hech narsani bildirmaydi, asabiylashganini ko'rsatadi;
- Bola bir tonda, ifodasiz, xuddi bir yod olgan matnni ifodalayotganidek gapiradi. Bola o'zi yaxshi gapira olmasa ham. uning aks-sado nutqi, ya'ni exolaliya ~ kimnidir ketidan qaytarish qobiliyati yaxshi boiadi;
- Odatdan tashqari idrok etish reaksiyalari (ovozga, hid, ta'm, ushlab ko'rishlarga), masalan ovozdan qattiq qo'rqib tushishi, ma'lum hiddan tushkunlikka tushishi va h.k.

Autizm bolada har xil darajada namoyon bo'lishi mumkin. Maktabga yangi kelgan bolalarda autizmga o'xshash belgilar paydo bo'lishi mumkin, chunki bola yangi muhit, yangi sharoitga, yangi odamlarga hali o 'rgamnagan bo'ladi. Og'ir darajadagi autizmida aqli zaiflik belgilari kuzatiladi.

Autizmning yengil holatida tarbiyachi bolaning kun tartibini to'g'ri tashkil etishi muhim. Bolaning faoliyatini uygunlashtirish, guruhdagi bolalar bilan yaqinlashtirish, psixoterapevtik tushuntirishishlarini izchillik bilan olib borishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi ota onalar bilan lushunlirish ishlarini o 'tkazishi zarur. Bolaga haddan tashqari ko'p e'tibor bermasiik. Bola oilada o 'zini hamma qatori his etishini ta'minlash. Bolaga qolidan keladigan ishlarni buyurish va bajargan ishini maqtab qo'yish, bolani qo'llab-quvvatlash. Maktabgacha tarbiya muassasasi xodimlari bola uchun qulay sharoit yaratib berib, unga yaxshi muomalada boigan holda uning ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishga yordam berishlari lozim.

Autizmning og'ir holatlarida. bola shifokor nazoratida doridarmonlar bilan davolanishi maqsadga muvofiqdir. So'nggi yillarda chet ellarda olib borilgan tadqiqotlardan olingan



ma'lumotlarning ko'rsatishicha, yoshlarda namoyon bo'ladigan erta bolalar autizmida markaziy nerv tizimidagi yetishmovchiliklarning juda kolp belgilarini kuzatish mumkin. Shuning uchun hozirgi vaqtda, ko'pgina mualliflar bolalar erta autizmi alohida patologiya oqibati, uning asosida markaziy nerv tizimining yetishmovchiliklari yotadi, deb ko'rsatyaptilar. Autizimli bolalarning intellektual rivojlanish imkoniyatlari turlichadir: intellektual jarayonlarni aqli zaifligidan to psixik rivojlanishni yengil orqada qolishi hamda qaysidir iste'dod qobiliyatining o'ziga xos ko'rinishini rivojlanishidir.

Autik bolalar bilan olib boriladigan ishlar yillar mobayniga cho'zilishini doimo yodda tutish lozim. Psixologik ishning asosiy qismini bola bilan olib boriladigan mashg'ulotlar tashkil etadi. Bunday mashg'ulotlarda psixolog autik bolaga odamlar bilan aloqa qilishning ancha faol va murakkab sharoitlarini yaratishi, unda dunyoning anglangan, deinak to'liq va bog'langan shaklini shakllantirishi kerak. Mashg'ulotlarda egallangan yangi tajriba astasekin mustahkamlanadi va uning dunyo bilan kundalik munosabatining asosiga aylanadi. Psixologning yordami bolaning yoshi katta bolib borgan sari, ayniqsa, yosh inqirozlari davrlarida, hayotning murakkab sharoitlariga o'ishda muhim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kanner L., Autistic disturbances of affectiv contact. –Nevrous Child. 1943,217 p 2.
- Rimland B. Infantile autism. – NY.:Appleton-Centure-Crofts.1964, 282 p
3. Броно М.Ш. О раннем детском аутизме (синдром Каннера).- Педиатрия, 1976 № 7
4. Башина В.М. Катамнез больных с синдромом раннего инфантильного аутизма. Журнал невропаталогия и психиатр., 1977, в.10